

## TUNLAM KAPALAKLARINING (LEPIDOPTERA:NOCTUIDAE) AHAMIYATI

Raxmataliyev O.R.

*O'zbekiston Milliy Universiteti magistranti, Toshkent, O'zbekiston*

Email: [oybekrustamovich111@gmail.com](mailto:oybekrustamovich111@gmail.com)

**Annotation:** This article provides information on the species diversity, occurrence areas, morphological characters of Owlet moths (Noctuidae), which are distributed in various agrotosenoses of Uzbekistan, as well as the extent to which owlet moths have been studied in Uzbekistan.

Tunlam kapalaklar (Noctuidae) - hasharotlarning tangachaqanotlilar (Lepidoptera) turkumiga mansub oilasi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda dunyoda tangachaqanotlilar (Lepidoptera) turkumining 141 oilaga mansub 180 000 ga yaqin turi mavjud [1]. O'zbekistonda 1500 turi uchraydi.

Tunlam kapalaklari (Noctuidae) oilasining dunyoda 11 772 turi tarqalgan.

Kapalaklari o'rtacha va mayda (3—5 sm), qoramtir, oldingi qanotlarida bir xil naqshi bor, tanasi tuklar bilan qoplangan. Og'iz apparati so'ruvchi, qurtlariniki kemiruvchi tipda. Qurtlarining ko'pchiligi yalang'och, g'umbagi qizg'ish jigarrang yoki qo'ng'ir tusli. Kapalaklari gul va daraxt shirasi bilan oziqlanadi. Tuxumlari sarg'imtir oqish. Qurtlarida 3 juft ko'krak oyog'ining birinchi bo'g'imida va 10 juft qorin oyog'ining 1-8 bo'g'imida nafas olish teshigi joylashgan.

Tunlamlar asosan, tungi faol hayot shakliga ega. Ba'zi tunlam qurtlari tuproqda yashab, o'simlik ildizlari yoki poyasining ildiz bo'g'izlarini kemiradi. Ayrimlari o'simlik bargi, shonasi, guli, ko'sagiga zarar yetkazadi (karadrina, ko'sak qurti, beda tunlami va boshqalar). Tunlam kapalaklar o'simlik qoldiqlari yoki tuproqqa 300 tagacha tuxum qo'yadi.

Tunlam kapalaklari qishloq xo'jaligi ekinlariga azaldan eng xavfli zararkunandalardan biri hisoblanadi. Shu sababdan uni o'rganish doim muhim bo'lib kelgan. Dastlab kemiruvchi tunlamlarni qand lavlagi dalalaridan topilganligi haqidagi dastlabki ma'lumotlarni E.M.Vasileva (1906) ma'lumotlarida ko'rish mumkin. Xuddi shunga o'xshash ish Farg'ona vodiysida g'o'za zararkunandasi kuzgi tunlamning zarari haqida I.Vasilev ma'lumotlarida keltirigan [3].

Qishloq xo'jaligi ekinlari zararkunandalarini sistematik jihatdan o'rganish 1911 yilda Toshkent shahrida o'simliklarni himoya qilish stansiyasini tashkil qilish bilan boshlandi. V.I. Plotnikovning ma'lumotlariga e'tibor beradigan bo'lsak Xorazm viloyatida 24000 gektar maydon kuzgi tunlamdan zarar ko'rganligini ko'rishimiz mumkin. Turkmaniston sharoitida ham xuddi shunday manzarani ko'rish mumkin. Asosiy e'tiborga loyiq ilmiy ishlardan biri bu A. Muminovning ko'p yillik izlanishlaridan O'zbekiston sharoitida kuzgi tunlam haqidagi materiallardir [1]. 1920-1930 yillarda karadrina tunlamini birdaniga ko'payib ketganligi, juda ko'p entomologlarni karadrinaning bioekologiyasi bilan shug'ullanishga turtki bo'ldi. O'zbekistondan tashqari xuddi shu vaqtlarda qishloq xo'jaligi ekinlarning zararlanishi Turkmaniston va Tojikistonda ham kuzatilgan [6]. B.A.Muminov "Toshkent viloyati tunlamlar faunasi" ni ilmiy asosda o'rgangan va 8 kenja oilaga mansub 35 turini aniqlagan [1].

Keyingi yillarda tunlamlar borasida har tomonlama ilmiy izlanishlar kuchaygan bo'lib, quyi Amudaryo hududlari ya'ni Qoraqalpog'iston respublikasida B.A. Muminov va M.Y. Bobojonovlar (1995) 22 avlodga mansub 34 turni aniqladilar [1]. M.Sh.Raximov tomonidan 1993-1995 yillarda Xorazm vohasining antropogen landshaftlaridagi tunlamlar faunasi, biologiyasi o'rganilgan bo'lib, 53 tur haqida ma'lumot keltirilgan. Ulardan 20 turi g'o'za agrotsenozida, 28 turi makkajo'xori agrotsenozida, 30 turi beda agrotsenozida va 4 turi sholi agrotsenozida uchrashi aniqlangan [3].

Shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Surxon davlat qo'riqxonasi umurtqasiz hayvonlari o'rganilmagan. Aynan shu maqsadda biz o'z oldimizga Surxon davlat qo'riqxonasining tunlam kapalaklari (Noctuidae) oilasini xilma-xilligini o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

Ushbu oilani ko'pchilik vakillari tunda faol hayot kechiradi. Shuning uchun bu oila tungi kapalaklar deb nomlangan. Shunga binoan, ilmiy asosda ularni yig'ish va ushlash ham umumentomologik usullarda olib boriladi. Bu metodda entomologik to'r xaltachalar –matrap (sachoklar), feromon tutqichlar, materiallar, qurtlar uchun maxsus moslamalar, soxta xo'rak – primankalar va yorug'lik tutqichi ya'ni ESLU-3 tipidagi hasharotlarni ushlash moslamasi, DRL-200, DRL-400 elektr lampalari va boshqa yorug'lik manbalaridan foydalaniladi.

Kapalaklarni ushlashda yorug'likdan tashqari tashqi muhit va iqlimning o'ziga xos xususiyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Elektr manbai mavjud bo'lmagan joylarda qo'lda olib yuriladigan elektr chirog'idan foydalaniladi. Yorug'likka uchib kelgan kapalak va boshqa hasharotlar shisha bankalar yordamida tutilib, maxsus qutilarga joylashtiriladi.

Keyingi vaqtlarda hasharotlarni shuningdek, kapalaklarni o'ziga jalb qiluvchi vositalar attraktantlar yordamida ushlash tavsiya etilmoqda. Bunday vositalarga yorug'lik, kimyoviy aromatik, gormonal moddalar feromon tutqichlar va boshqalar kiradi. Shu vaqtgacha ilmiy tadqiqot ishlarida kapalaklarni tutish usullaridan eng foydalisi bu turli tutqichlardir. Yorug'lik tutqichlari asosan atrofi ekinzor bo'lgan joyga o'rnatiladi. Yorug'lik tutqichlarining qiziq tomoni shundaki, har qanday tunda aktiv bo'lgan hasharot yorug'likni ko'rgach, shu yorug'lik tomon uchib keladi. Agar yorug'lik yonida oq ekran yoki oq devor bo'lsa, shu yerga kelib qo'nadi. Hasharotlarning yorug'likka reaksiyasi turlicha, lekin yorug'lik to'lqin uzunligi qancha qisqa bo'lsa, uning hasharotlarni jalb etish kuchi shuncha yuqori bo'ladi. Ayniqsa, hasharotlar ultrabinafsha, binafsha va ko'k nurlarga juda sezgir bo'ladilar, uning atrofiga yig'iladilar. To'lin oy kechalari hasharotlarning yorug'likka kelishi kamayadi. Bunga asosiy sabablar quyidagilar: kunduz kuni ham,

kechqurun ham to'liqin uzunligi qisqa nurlari, ayniqsa ultrabinafsha nuri ochiq joylarda xarakterlidir. Kunduzi qisqa to'liqinli yorug'lik manbai quyosh bo'lsa, kechqurungi manbai bo'lib oy xizmat qiladi. Shuning uchun tungi vaqt ultrabinafsha, oq chiroq hasharotlarni o'ziga ko'proq jalb etadi [3].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, yuqoridagi adabiyotlarni, olib borilgan ishlar, tadqiqotlar natijasini tahlil qilgan holda ushbu oila vakillari qishloq xo'jaligining turli agrotsenozlarida keng tarqalganligi va qishloq xo'jaligi ekinlariga va o'simliklariga katta zarar keltirishi mumkinligini aytish mumkin. Ayniqsa, tangachaqanotlilar keltiradigan zarari jihatidan boshqa zararkunandalardan ajralib turadi. Bulardan tunlamlar oilasiga mansub kapalaklar orasida, qishloq xo'jaligining zararkunandalari hisoblangan turlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Shuning uchun ushbu oila vakillari tarqalgan hududlarda tadqiqot ishlarini olib boorish dolzarb masalalardan bo'lib hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бекчанов Х.У. Фауна чешуекрылых Бадай-Тугайского Государственного заповедника Республики Узбекистан. – Москва: Спутник, 2011. С. 72-75.
2. Муминов Б.А. Рахимов М.Ш. «Сариқ чизиқли тунлам (*Mythimna vitellina*)ни ривожланишини ўрганиш». Тошду ёш олимлари ва талабалари илмий мақолалар тўплами. Ташкент. 1997, №1, Б. 80-83.
3. Рахимов М.Ш. Совки (сем. Noctuidae) антропогенных ландшафтов Хорезмского оазиса (фауна, биология, экология). Автореферат. Дисс.к.б.н., Ташкент. 1997 г. 21с.
4. Halimov, M. Z., Norkobilova, Z. B., & Hayitov, I. Y. (2016). BIOLOGICAL AND ECOLOGICAL FEATURES OF THE APPLE TREE IN CONDITIONS OF SOUTH UZBEKISTAN. In Наука и инновации в современном мире (pp. 120-121).
5. Yusupovich, R. A. (2022). ECOLOGICAL-FAUNIST ANALYSIS OF COXINALLIDES (COLEOPTERA, COCCINELLIDAE) OF THE KARSHI OAKH. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 4, 331-335.
6. Khursandovich, B. D., Rakhimovna, O. N., & Kizi, N. Z. B. (2021). Liotryphon punctulatus-the ectoparasite of codling moth. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(4), 963-967.
7. Davronov, B., Xoliqulova, G., & Maxmarajabov, D. (2024). QURUQLIK QORINOYOQLI MOLLYUSKALARINING SHAHAR BIOTOPLARI BO 'YICHA TARQALISHI. Actual problems and prospects of the study of the fauna, 1(01).
8. Davronov, B., & Orziyeva, Y. (2024). QASHQADARYO VILOYATI HUDUDIDA UCHRAYDIGAN NYGROMIIDAE OILASI (Tryon, 1866) FAUNASINING O 'RGANILGANLIK HOLATI. Actual problems and prospects of the study of the fauna, 1(01).
9. Рахматуллаев, А. Ю., Давронов, Б. О., Норкобилова, З. Б., & Омонова, Н. Р. (2021). Фауна Дождевых Червей В Узбекистана. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 1(5), 310-314.
10. Карабекова, Д. У., Исакова, С. А., & Остащенко, А. Н. (2019). К ЭКОЛОГО-ФАУНИСТИЧЕКОМУ ИССЛЕДОВАНИЮ ГЕЛЬМИНТОВ ГРЫЗУНОВ (RODENTIA) ЧУЙСКОЙ ОБЛАСТИ. Исследование живой природы Кыргызстана, (1-2), 51-56.
11. kizi Norkobilova, Z. B., Rakhmatullayev, A. Y., & ogli Boyjigitov, O. D. (2023). PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION. World of Scientific news in Science, 1(3), 5-14.
12. Toshov, O. J. (2021). BIOTSENOTIC RELATIONS OF REPTILES ANIMALS IN THE DESERT ECOSYSTEMS OF THE SOUTHERN REGION OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (4-1 (83)), 423-425.
13. Тошов, У. Ж., & Самадова, М. П. (2021). КАШКАДАРК ВИЛОЯТИНИНГ ЧУЛ ЭКОСИСТЕМАЛАРИДА РЕПТИЛИЯЛАРНИНГ БИОЦЕНОТИК АЛОЦАЛАРИ. Журнал естественных наук, 2(1).
14. Djumayevich, T. U. (2019). The cycles of the development of the reptile helminthes and the ecology of their population. Вестник науки и творчества, (2 (38)), 79-82.
15. Abdikayumovna, X. G. (2023). Mazkur maqolada Respublikamizdagi suv omborlarda uchraydigan mollyuskalarning turlari, yashash sharoitlari, tuzilishi, faunasi, ekologiyasi, tarqalishi va inson hayotidagi ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. JOURNAL OF HEALTHCARE AND LIFE-SCIENCE RESEARCH, 2(5), 78-81.
16. Raximovna, O. N., Yadgarovich, B. G., & Qizi, I. Z. I. (2024). UY PARRANDALARI EKTOPARAZIT BO'G'IMOYOQLILARIDAN MATERIAL YIG'ISH VA METODIKASI. In The World Of Science and Education, (20 сентябрь БН), 3-6.
17. Бобоназаров, Г. Я., & Омонова, Н. Р. (2021). OZBEKISTONDA YIRIK SHOHLI QORAMOLLAR TERI OSTI OQRASI NYPODERMA BOVUS (DIPTERA) ORGANILISHIGA DOIR. Журнал Биологии и Экологии, 3(1).
18. Babonazarov, G. Y., Omonova, N. R., Orziyeva, Y. M., & Khosilova, G. A. (2022). Economic Damage Caused by Scabies Itch Mite, Sarcoptes Scabiei (Acariformes: Sarcoptidae) to the Wool Production of Sheep. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2433-2436.
19. Norqobilova, Z. (2024). QASHQADARYO HUDUDIDA TARQALGAN ORTHETRUM SABINA (DRURY 1770), NINACHI TURINI TAKSONOMIYASI VA MORFOBIOLOGIYASI. Actual problems and prospects of the study of the fauna, 1(01).

20. Qizi N. Z. B. QASHQDARYO HUDUDIDA TARQALGAN ORTHETRUM NEWMAN, 1833 AVLODIGA MANSUB NINACHILAR TAKSANOMIYASI VA MORFOBIOLOGIYASI //In The World Of Science and Education. – 2024. – №. 20 сентябрь БН. – С. 18-20.